

## KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA YUQUMLI KASALLIKLAR FANINI O'QITISHNING KREATIVLIK VA REFLEKTIVLIK HUSUSIYATLARI

D.Sobirova PhD

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

Umumkasbiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klasterli yondashuv asosida yuqumli kasalliklar fanini o'qitish haqida, klaster tushunchasi, sog'liqni saqlash sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalari, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar hususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'z.** klaster, yuqumli kasalliklar, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogic texnologiya, uzluksiz ta'lim, xalqaro standart.

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается преподавание науки об инфекционных болезнях на основе кластерного подхода, концепция кластера, результаты научных исследований в области здравоохранения, масштабные мероприятия по созданию системы высшего образования, отвечающей требованиям международного стандарта.

**Ключевое слово.** кластер, инфекционные болезни, социально-экономические, педагогические технологии, непрерывное образование, международный стандарт.

**Abstract.** This article discusses the teaching of the science of infectious diseases based on the cluster approach, the concept of cluster, the results of scientific research in the field of health, and large-scale measures to create a higher education system that meets the requirements of international standards.

**Key word.** cluster, infectious diseases, socio-economic, pedagogical technology, continuous education, international standard.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yagona ta'lim siyosatining hududlar kesimidagi ijrosi oliy ta'lim tizimining innovatsion komponentlarini samarali rivojlantirish va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlashga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Hususan, bugungi kunda pedagogik ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishining hayotiy zaruratga aylanishi, unda OTM da ta'limni zamonaviy va samarali tashkil etish, raqobat, integratsiya, uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishi natijasida manfaatlarning qondirilishiga erishish zaruratini namoyon qilmoqda. Uzluksiz ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi ushbu muhim ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar hamda ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda, uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini belgilaydi.

*Klaster* – o'zaro bog'liq muaasasalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma deyish mumkin.<sup>1</sup>

“Klasterlarning shakllanishida davlatning roli muhim o'rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha Ma'lum tajriba to'plangan.

<sup>1</sup>Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M., Mejdunarodnye otnosheniya, 1993

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A. Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsibanomalar tuzukkina ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya<sup>2</sup>.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish, o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar solish deb qaraladi.(V.A. Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;
- shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyasi;

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;
- o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;
- o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.

Refleksiya (lotincha *reflexio* - ortga qaytish ) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

<sup>2</sup> O'.M.Asqarova o'quv qo'llanma "O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Namangan-2020

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: "Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishni ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi. Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi. Keyingi sharti - bu o'qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilganidir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Porter M. Mejdunarodnaya konkurensiya. - M., Mejdunarodnye otnosheniya, 1993
2. O'.M.Asqarova o'quv qo'llanma "O'quv faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" Namangan-2020
3. Abduqodirov A.A. va boshqalar Ta'lim jarayonini takomillashtirish nazariyasi va metodologiyasi T-" fan va texnologiya" 2012
4. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent. "Fan". N. 2000y.